

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.05.2020.I.66.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

SHAXOBOV XAMIDJON MUXAMADOVICH

**TADBIRKORLIK SUB'YEKTLARI FAOLIYATINI KLASTER ASOSIDA
TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
(Namangan viloyati paxta-to'qimachilik korxonalarini misolida)**

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

**IQTISODIYOT FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of the Dissertation Abstract of doctor of philosophy (PhD) in
Economics Sciences**

Shaxobov Xamidjon Muxamadovich

Tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatini klaster asosida tashkil etish va rivojlantirish
istiqbollari (Namangan viloyati paxta-to'qimachilik korxonolari
misolida)

.....
3

Шахобов Хамиджон Мухаматович

Перспективы организации и развития деятельности субъектов
предпринимательства на основе кластера (на примере хлопково-текстильных
предприятий Наманганской
области)

.....
27

Shakhobov Khamidjon Mukhamadovich

Prospects of cluster-based organization and development of business subjects
(in the example of cotton-textile enterprises of Namangan
region)

.....
51

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published
works

.....
56

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.05.2020.I.66.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

SHAXOBOV XAMIDJON MUXAMADOVICH

TADBIRKORLIK SUB'YEKTLARI FAOLIYATINI KLASTER ASOSIDA
TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
(Namangan viloyati paxta-to'qimachilik korxonalarini misolida)

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

IQTISODIYOT FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Namangan – 2024

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Iqt1955-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasi (www.nammti.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Matkarimov Komoliddin Jurabayevich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Aripov Oybek Abdullayevich
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ibragimov Isroiljon Usmonovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.05.2020.1.66.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "14" 02 soat 11:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (0569) 228-76-71, Faks: (0569) 228-76-75, e-mail: niei_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (271-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (0569) 228-76-71).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "27" 01 kuni tarqatildi.
(2024-yil "27" 01 dagi 1/ raqamli reestr bayonnomasi).



(Handwritten signatures and initials)

Sh.D.Sayitbayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sh.Z.Muxitdinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

R.I.Israilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahondagi rivojlangan mamlakatlarning tajribasi turli shakllardagi klasterlarning paydo bo'lishining samaradorligini va muqarrar qonuniyligini ishonchli tarzda isbotlamoqda. Shuning uchun ham dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining samarali o'sish drayveri sifatida klasterlar iqtisodiy faoliyatning qariyb 50 foizini qamrab olgan. "...AQSHda 380 ta klaster faoliyat yuritadi va YAIMning 60 foizi ularning hissasiga to'g'ri keladi. Italiya sanoatida band bo'lganlarning 43 foizi 206 ta klasterda mehnat qiladi va mamlakat eksportida ushbu klasterlarning ulushi 30 foizni tashkil etadi. Xitoyda 60 dan ortiq maxsus klasterlar 30 mingga yaqin korxonani birlashtiradi va ularda 3,5 million kishi mehnat qiladi. Mazkur korxonalarda yiliga 200 milliard AQSh dollariga teng mahsulot ishlab chiqariladi"¹.

Rivojlangan mamlakatlarda klasterli yo'ndashuvlar asosida resurs va energiya tejankor zamonaviy texnologiyalardan keng foydalangan holda mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, eksportini yanada kengaytirish va imtiyozlar berish maqsadida huquqiy, institusional, investision hamda innovatsion muhitni yaxshilash kabi bir qator yo'nalishlarda keng ko'lamlil ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Zero, hududlarda turli yo'nalishlarda klasterini tashkil etish va ularning asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlarini baholash dolzarb ilmiy-tadqiqot yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston uchun mamalakat va uning hududlarida innovasion iqtisodiyotni shakllantirishda muhim jihatlaridan biri-uning rivojlanishining klaster usuliga o'tkazish hisoblanadi. Bu mamalakat iqtisosdiyotida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning yangi yo'nalishlarini izlashni taqozo etadi. Shunday yo'nalishlardan biri bu paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil etishdir. Bu esa o'z navbatida paxta-to'qimachilik tarmog'ida korporativ xususiy mulkka asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik klasterlarini tashkil etish va ular faoliyatidan samarali foydalanishni talab etmoqda.

O'zbekistonda milliy iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlarni yanada kengaytirish borasida yuzaga kelayotgan muammolarni amaliy yechimini topishga yangicha munosabatlar, yondashuvlarni amalga oshirishni talab etadi. Muhimi, xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning asosiy drayveriga aylanishi, taraqqiy etishi klasterlarni tashkil etish va rivojlantirish bilan bog'liq. Iqtisodiy fanlarda klasterlarga e'tibor berilgan bo'lsada, biroq huquqiy shart-sharoitlarning asosiy vektorlari, ya'ni, paxta-to'qimachilik tarmog'ida klasterlarni tashkil etish va rivojlantirish masalalari bugungi kun nuqtai-nazaridan keng ko'lamda o'rganilmagan. Mazkur muammolarni o'rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Keyingi yillarda paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmon va qarorlari qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning

¹ Yangi O'zbekiston gazetasi 31-mart 2023-yil 509- soni.

taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli, 2021-yil 16-noyabrdagi “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-14-sonli, 2023-yil 10-yanvardagi “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-2-sonli, 2023-yil 10-fevraldagi “Tadbirkorlik sub’yektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-sonli va 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-yanvardagi “Paxta xom ashyosi yetishtiruvchilar faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-23-sonli Qarori. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-sentyabrdagi “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishlarini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 744-sonli Qarori. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-iyundagi “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 397-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom hamda ushbu yo‘nalishdagi boshqa bir qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarilishida mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishining “Iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning yangi mexanizmlarini tadqiq etish” ga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tadbirkorlik faoliyatini yaxlit klasterlar tizimi asosida shakllantirish va rivojlantirishni xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xorijiy mamlakat olimlaridan A.Marshall, M.Porter, M.Enrayt, S.Rozenfeld, P.Maskell, M.Lorensen, P.Bekatin, M.Storper, Dj.Danning, Dj.Xamfri, B.O.Lundval, B.Yonson, B.Asxaim, A.Izakson, J.Tomson²larning asarlarida va ilmiy tadqiqot ishlarida korporativ xususiy mulkka asoslangan klasterlarning nazariy-amaliy jihatlari ilmiy asoslab berilgan.

² Porter M. E. Clusters and Competition: New Agendas for Companies, Governments, and Institutions / M.E.Porter // Harvard Business School Working Paper. –998.– Vol. 98-080.– P. 197–287. Porter M. E. Clusters and the New Economics of Competition / M. E. Porter // Harvard Business Review. – 2018. – Vol. 76 (6). – P. 77–90, A.Маршалл. Принципы экономической науки : в 3 т. Т. 1. М. : Прогресс, 1993, Enright M. J. Survey on the Characterization of Regional Clusters: Initial Results. Working Paper // Institute of Economic Policy and Business Strategy: Competitiveness Program University of Hong Kong. 2000, S.A. Rosenfeld S. A. Bringing Business Clusters into the Mainstream of Economic Development / S. A. Rosenfeld // European Planning Studies. – 1997. – № 1, 5. – P. 3–23, Maskell, P. The Cluster as Market Organization / P. Maskell, M. Larenzen // DRUID Working Paper. – 2003. № 03–14. – P. 29. 69, Storper, M. The Regional World: Territorial Development in Global Economy. N.Y. / M. Storper // Guilford Press. – 1997. – P. 338, Lundvall, B.A. The Learning Economy / B.A. Lundvall, B. Johnson // Journal of Industry Studies. – 1994. – Vol. 1. – P. 23–42, Asheim B.T., Isaksen A. Location agglomeration and innovation: Towards regional innovation systems in Norway? STEP GROUP, Report 13-96, Oslo, 1996. – 64p, Dunning J.H. The globalization of business: the challenge of the 1990s.N.Y.: Routledge, 1993. – 463p, Томсон Дж. П. (2015) Бизнес кластеры – сила малых предприятий / Toprated cluster // Euronews. URL:

Nazariyalarning muhim jihati dixotomiya emas balki, klaster-tovar ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchilar tadbirkorlik sub'yektlarini yagona texnologik zanjirini hududdagi injineriing, marketing, dizayn, ilm-fan, ta'lim va boshqa sohalaridagi sub'yektlar faoliyati bilan uyg'unlashgan innovasion strategiya ekanligidir.

Tadbirkorlikni klaster asosida rivojlantirishga oid ilmiy nazariyalar rus olimlari Yu.S.Artamonova, B.B.Xrustalyov, Ye.G.Karpova, Ye.V.Ivanova va boshqalar tomonidan o'rganilib, amaliyotga tadbiriq etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan³.

O'zbekistonda yaxlitlikka asoslangan, ya'ni zanjirsimon qo'shimcha qiymat yaratishning klaster nazariyasini hamda uni tashkil etish va rivojlantirishning turli tomonlari mahalliy olimlar tomonidan ham o'rganilgan, A.Sh.Bekmurodov, M.Boltaboyev, Z.J.Odilova, D.M.Mirzaxalilova, G.E.Zoxidov, O.Saidaxmedov, A.Soliyev, M.S.Yusupov, M.A.Raxmatov, B.Z.Zaripov, S.Tojiyevlarning ilmiy-tadqiqotlarida paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil etish va rivojlantirishning mazmun-mohiyati ahamiyatiga e'tibor qaratishtan⁴.

Biroq ilmiy-tadqiqotlar o'rganilayotgan muammoning muayyan tomonlarini aks ettirgan, ya'ni milliy iqtisodiyot uchun yangi bo'lgan tadbirkorlik bilan klasterlarning bir butun yaxlit tizim sifatidagi integratsiyasi masalalarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati nazariy-amaliy jihatdan chuqur o'rganilmagan. Shuningdek, mamlakatimizning turli hududlarida paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil etish va rivojlantirishni o'ziga xos xususiyatlariga yetarlicha baho berilmagan. Bu mazkur tadqiqot mavzusining maqsadi va vazifalarini belgilab beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.

<http://www.nofollow.ru/video.php?c=RV243B7jZFE>, Humphrey J., Schmitz H. Governance and Upgrading Linking Industrial Cluster and Global Value Chain Research. IDS Working Paper №120, 2000. – 37p.

³ Кластерные политики и кластерные инициативы: теория, методология, практика: Кол. монография / под. ред. Ю.С. Артамоновой, Б.Б. Хрусталева – Пенза: ИП Тугушев С.Ю., 2013. – 230 с, Карпова Е.Г. Сущность и структура экономического кластера. Научно-технические ведомости СПбГПУ, 2011, Экономические науки. 62 стр., Иванова Е.В. О факторах эффективности кластеризации экономики региона. // Экономические науки. 2012. № 9. С. 101-104.

⁴ Бекмуродов А.Ш., Янг Сон Бэ. Стратегия развития текстильной промышленности Узбекистана: Кластерный подход. Монография. – Ташкент: ТГЭУ, 2006. – 112 с.; Болтабаев М.Р. Ўзбекистон Республикаси тўқимачилик саноати экспорт имкониятларини ривожлантиришда маркетинг стратегияси: И.ф.д. дисс. автореф. – Тошкент: ТДИУ, 2005.–35 б, Болтабаев М.Р., "Ўзбекистон Республикаси тўқимачилик саноати экспорт имкониятларини ривожлантиришда маркетинг стратегияси". И.ф.д. дисс.автореф. Т.2005. 37-б., Адилова З.Ж., "Халқаро бозорларга экспорт махсулотларини йўналтиришнинг маркетинг стратегиялари". И.ф.д. дисс.автореф. Т.2008. 31-б. Бэ Янг Сонг. "Управление развитием текстильной промышленности на основе стратегии формирования кластеров (на материалах Республики Корея и Республики Узбекистан)". К.э.н. дисс.автореф. Т.2008. 44-б. Д.Мирзахалилова "Повышение конкурентоспособности текстильной промышленности Узбекистана на основе кластеризации". К.э.н. дисс.автореф. Т.2012. С. 32. Захидов Г. "Ўзбекистон энгил саноатида ишлаб чиқаришни кластер усулида ташкил этиш ва бошқариш самарадорлиги". Иқтисодий фанлари бўйича фалсафа доктори. дисс.автореф. Т.2017. 35-б, А. Солиев, Х. Кодиров. Кластеризация экономики – важнейший фактор стратегического планирования. Иқтисодий: таҳлиллар ва прогнозлар. Т.: 2019., №1. 104-108 б. М.А. Рахматов, Б.З. Зарипов. Кластер – интеграция, инновация ва иқтисодий ўсиш. Рисола. Т.: "Zamin Nashr", 2018. М.А. Rahmatov, F.X. Rakhimov, B.Z. Zaripov и др. Cotton-Textile Cluster as a Knowledge Base for Education, Science and Manufacturing Innovational Cooperation. International Journal of Agriculture and Forestry 2018, 8(3): 124-128 DOL: 10.5923/j.ijaf. 20180803.02. <http://www.sapub.org/journal/archive.aspx?journalid=1041&issueid=3770> . Ф.Х. Рахимов, М.А. Рахматов, Б.З. Зарипов, Б.Ш. Усмонов. Paxta-тўқимачилик кластери ёхуд иқтисодий юксалиш сари одимлар. Т.:Тўқимачилик муаммолари. 2018. - №4, 120-125 бетлар.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Namangan muhandislik-texnologiya instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, ITM-6 “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Paxta-to‘qimachilik sohasida tadbirkorlik faoliyatini klaster asosida tashkil etish va rivojlantrishning hududiy xususiyatlari bo‘yicha ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

-mamlakat hududlarini barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlashda xususiy tadbirkorlikka oid klasterli integrasion yondashuvning nazariy-amaliy asoslari mazmun-mohiyatini yoritib berish;

-paxta-to‘qimachilik klasterlari ishlab chiqarish zanjirida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va uni rivojlantirishning ahamiyati va zarurligini asoslab berish;

-klaster tarkibidagi tadbirkorlik sub‘yektlari o‘rtasidagi yuzaga keladigan iqtisodiy-moliyaviy munosabatlarni o‘ziga xos xususiyatlariga baho berish, ularni baholash tizimini aniqlash uslubiyotini yanada takomillashatirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

-xorijiy mamlakatlarda raqobatbardosh innovasion klasterlarni tashkil etish tajribasi va ularni O‘zbekiston (jumladan, Namangan viloyati) paxta-to‘qimachilik tarmog‘idagi tadbirkorlik sub‘yektlari faoliyatiga joriy etishning ilmiy-amaliy ahamiyatini yoritib berish;

-paxta-to‘qimachilik klasterlari zanjiridagi tadbirkorlik sub‘yektlari ishlab chiqarish holatini va uning moliyaviy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish;

-paxta-to‘qimachilik klasterlari tarkibidagi tadbirkorlik faoliyatiga ta‘sir etuvchi omillarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

-paxta-to‘qimachilik klasterlari korxonalarini davlat tomonidan moliyaviy, ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlashni o‘rganish va uni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

-xususiy tadbirkorlik klasterlarida zamonaviy xizmatlarni amalga oshirish iqtisodiy samarasini ekonometrik modellarini shakllantirish.

Tadqiqot ob‘yekti sifatida Namangan viloyatidagi paxta-to‘qimachilik klasterlari tarkibidagi tadbirkorlik sub‘yektlari faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmeti paxta-to‘qimachilik klasterlari tizimida tadbirkorlik sub‘yektlari faoliyatini shakllantirish va yanada rivojlantirish borasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar yig‘indisidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, statistik kuzatish, statistik jamlash va guruhlash, korrelyasion va regression tahlil, SWOT tahlili, ekonometrik modellashtirish hamda prognozlash kabi usullar qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

-uslubiy yondashuvga ko‘ra “paxta-to‘qimachilik klasteri” tushunchasining iqtisodiy mazmuni to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga oid iqtisodiy faoliyatning bir-biriga bog‘liq sohalarida tadbirkorlikni muvaffaqiyatli amalga oshirishda texnologik jarayonlarni uzviyligi va uzluksizligini ta‘minlash hamda iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish imkonini beruvchi o‘zaro

manfaatdorlikka asoslangan takror ishlab chiqarish zanjiri nuqtai-nazaridan takomillashtirilgan;

-Namangan viloyati tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatini tartibga solishning hududiy idoralari tomonidan hududdagi to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga oid iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hamkorlikka asoslangan klasterlarni tashkil etishning maqbul variantini loyihalash xizmatini yo'lga qo'yish asosida "Art Soft Holding" kompaniyasi tarkibidagi tadbirkorlik sub'yektlari mahsulot ishlab chiqarish tannaxini pasaytirish taklifi asoslangan;

-tadbirkorlik faoliyatini klaster usulida yanada rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish asosida "Art Soft Holding" kompaniyasi tarkibidagi tadbirkorlik sub'yektlarining 2023-2027-yillardagi mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko'p omilli prognozi ishlab chiqilgan;

-Namangan viloyatidagi paxta-to'qimachilik klasterlari tarkibidagi tadbirkorlik sub'yektlarining istiqboldagi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik va iqtisodiy-matematik modellar asosida 2027-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi

-hududlarda tashkil etilgan paxta-to'qimachilik klasterlarida turli faoliyat bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'yektlarini o'zaro manfaatdorlik asosida ixtiyoridagi resurslardan hamkorlikda foydalanish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Namangan viloyatidagi "Art Soft Holding" MCHJga taklif etilgan;

-klaster tizimidagi tadbirkorlik sub'yektlari o'rtasida tuzilgan shartnomalarni o'z vaqtida bajarilishi va uni buzganlar uchun jazo choralari ko'rish bo'yicha takliflar asoslangan va u O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari uyushmasiga tavsiya etilgan;

- paxta-to'qimachilik klasterlarida mahsulot ishlab chiqarishning afzalligi bir birlik mahsulot uchun xarajatlar nuqtai-nazaridan yondoshib, asoslab berilgan;

-paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyati ko'rsatkichlarini bashorat qilish va tizimili baholashga oid ekonometrik uslubiyot taklif etilgan;

-kelgusi davrda paxta-to'qimachilik klasterlarini zanjiridagi tadbirkorlik sub'yektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi rivojlangan xorij mamlakatlari tajribalarini o'rganish va umumlashtirish, paxta-to'qimachilik klasterlarida tadbirkorlikni rivojlantirish va takomillashtirish borasidagi mavjud ilmiy tadqiqot ishlarini qiyoslash va tanqidiy nuqtai nazardan baho berish, axborotlar bazasining milliy (O'zsanoatsavdo uyushmasi, O'zbekiston savdo sanoat Palatasi, O'zto'qimachilik sanoat uyushmasi) va xalqaro tashkilotlar ((European Cluster Organisation Directory, (Private Sector Development Branch, Science and Technology Entrepreneurship Development, Technopreneur Promotion Program).ning rasmiy manbaalaridan olinganligi, ularni tahlil usullaridan foydalanish asosida qayta ishlanganligi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi paxta-to'qimachilik klasterlari uyushmasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy ma'lumotlari va hududlarda faoliyat yuritayotgan klasterlarning buxgalteriya va statistik hisobotlaridan foydalanilganligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqotdan olingan nazariy va uslubiy xulosalar shu toifadagi tadqiqotlar xarakteriga mos keladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kelgusida paxta-to‘qimachilik klasterlari tarkibida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish va tartibga solish, uning istiqbolli yo‘nalishlarini tadqiq etish masalalariga oid maxsus ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va tavsiyalar paxta-to‘qimachilik klasterlarida tadbirkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan kompleks dasturlar uchun uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni mahalliy hududlarda paxta-to‘qimachilik klasterlarini rivojlantirishda, paxta xom-ashyosini yetishtiruvchi, yetkazib beruvchi, qayta ishlovchi, sotish bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatini yanada rivojlantirishda, ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda, ayrim turdagi mahsulotlarni kelgusida ishlab chiqarish hajmi va iste’mol darajasini hisoblash bo‘yicha “yo‘l xarita”larini ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Shuningdek, ayrim metodologik-nazariy xulosalardan oliy o‘quv yurtlarida bakalavriat va magistraturaning iqtisodiy yo‘nalishidagi fanlardan o‘quv uslubiy majmualar va dasturlarni ishlab chiqishda ilmiy manbaa sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadbirkorlik faoliyatini klaster usulida tashkil etishni afzalliklari va istiqbollari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

-uslubiy yondashuvga ko‘ra “paxta-to‘qimachilik klasteri” tushunchasining iqtisodiy mazmunini to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga oid iqtisodiy faoliyatning bir-biriga bog‘liq sohalarida tadbirkorlikni muvaffaqiyatli amalga oshirishda texnologik jarayonlarni uzviyligi va uzluksizligini ta‘minlash hamda iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish imkonini beruvchi o‘zaro manfaatdorlikka asoslangan takror ishlab chiqarish zanjiri nuqtai-nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Iqtisodiyotda qo‘llanilayotgan atamalarning izohli lug‘ati” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021-yil 21-noyabrdagi 500-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda “paxta-to‘qimachilik klasteri” tushunchasi yuzasidan texnologik jarayonlarni uzviyligi va uzluksizligini ta‘minlash hamda iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish imkonini beruvchi o‘zaro manfaatdorlikka asoslangan takror ishlab chiqarish zanjiri sifatida kengroq bilim va ko‘nikmalar shakllantirish imkoni yaratilgan;

-Namangan viloyati tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatini tartibga solishning hududiy idoralari tomonidan hududdagi to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga oid iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hamkorlikka asoslangan klasterlarni tashkil etishning maqbul variantini loyihalash xizmatini yo‘lga qo‘yish asosida “Art Soft Holding” kompaniyasi tarkibidagi tadbirkorlik sub’yektlari

mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish taklifi “O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” uyushmasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan. (“O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” uyushmasining 2023-yil 27-sentyabrdagi 02/22-725-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida “Art Soft Holding” kompaniyasida ishlab chiqarish tannarxini 9,1 foizga kamaytirish imkoni yaratilgan;

-tadbirkorlik faoliyatini klaster usulida yanada rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish asosida “Art Soft Holding” kompaniyasi tarkibidagi tadbirkorlik sub’yektlarining 2023-2027-yillardagi mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko‘p omilli prognozi “Art Soft Holding” kompaniyasi tomonidan 2023-2027-yillarda Namangan viloyatida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan loyihalar yuzasidan amaliy dasturlar bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (“O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” uyushmasining 2023-yil 27-sentyabrdagi 02/22-725-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida o‘rta muddatli istiqboldagi loyihalar asosiy parametrlarining aniqligi va o‘zaro muvofiqligini ta’minlash imkoni yaratilgan;

-Namangan viloyatidagi paxta-to‘qimachilik klasterlari tarkibidagi tadbirkorlik sub’yektlarining istiqboldagi rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik va iqtisodiy-matematik modellar asosida 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari “O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” uyushmasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (“O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” uyushmasining 2023-yil 27-sentyabrdagi 02/22-725-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida Namangan viloyatidagi paxta-to‘qimachilik klasterlarining istiqboldagi rivojlanish tendensiyalarini aniqlash hamda asosiy faoliyat parametrlarining o‘zaro muvofiqligini ta’minlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 18 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, xorijiy jurnallarda 2 ta, xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plamlarida 13 ta ma’ruza tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, hajmi 165 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, o‘rganilayotgan tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda ob’yekti va predmeti qayd etilgan. Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan, shuningdek, tadqiqot

natijalarini amaliyotga joriy etish, chop etilgan ilmiy ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatini korporativ klaster usulida tashkil etishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda klasterli yondashuvni o'ziga xos xususiyatlari, klaster tizimiga kiruvchi xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini o'zaro munosabatlarini o'ziga xos jihatlari, xorij mamlakatlarida raqobatbardosh klasterlarni tashkil etish tajribasi va undan foydalanishni nazariy-uslubiy asoslari yoritib berilgan.

Xorijiy va mamlakatimizdagi iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida “klaster” tushunchasiga bir qator ta'rif va tasniflar berilgan. Jumladan, XX asrning 80-yillarida M. Porter tomonidan “klaster” atamasi iqtisodiy kategoriya sifatida ilmiy jarayonlarga kiritilgan. Uning fikricha klaster-ma'lum sohada faoliyat yuritayotgan kompaniya va institutlarning geografik jihatdan tarmoqlararo birlashuvi sifatida e'tirof etilgan. Klaster nazariyasining serqirraligi, unga nisbatan turli xil nazariy yondashuvlarni yuzaga keltirdi. Bugungi kunda yetakchi iqtisodchi olimlar tomonidan klaster nazariyasini o'rganish jahon mamlakatlarida tez sur'atlarda ko'payib, undan amaliyotda unumli foydalanish esa milliy va hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosi bo'lib borayotgani kuzatiladi. (1-jadval).

1-jadval

“Klaster” tushunchasiga berilgan asosiy ta'riflar⁵

Mualliflar	Mazmuni
Porter M.	Klaster geografik nuqtai nazardan qo'shni bo'lgan, o'zaro bog'liq kompaniyalar (ishlab chiqaruvchilar, mahsulot yetkazib beruvchilar va boshqalar) hamda ularga aloqador xizmatlarni ko'rsatib, ma'lum sohada faoliyat yurituvchi tashkilotlar (ta'lim muassasalari, davlat boshqaruv idoralari, infratuzilmaviy kompaniyalar) guruhidir ⁶
Rozenfeld S.A .	Klaster-geografik yaqin va o'zaro bog'liq tarmoq korxonalarining konsentratsiyasi, biznes faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy xizmatlarini belgilaydigan hamda umumiy imkoniyatlar va tahdidlarga birgalikda harakat qiladigan ixtisoslashgan infratuzilma aloqalaridir
Yakobs Dj.	Iqtisodiy faoliyat yurituvchi sub'yektlarning hududiy birlashmasi, tarmoqlar o'rtasidagi gorizontaal va vertikal aloqalarga asoslanadi, umumiy texnologiyalardan foydalanish, asosiy ishtirokchining sifati yoki ularning hamkorligi bilan izohlanadi
Nastin A A.	Agroklaster bir vaqtda va o'zaro hamkorlikda ishlab chiqarish vazifalarini hal qilish va atrof muhitni himoya qilishda birlashish maqsadida geografik jihatdan bir joyda joylashgan, o'zaro bir-biriga bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi, turli mulk egalari-oilaviy ferma, fermerlarning kooperativ korxonalar, ijtimoiy va ilmiy tashkilotlar, ta'lim muassasalari va maslahat xizmatlaridan iborat bozor sub'yektlari tizimi.

⁵ Ilmiy adabiyotlardan foydalangan holda muallif tomonidan tayyorlandi.


⁶ Porter M. Cluster and Economics of Competition Harvard Business Review. Avialabie at <http://har.org/product/cluster-and-the-new-economis-of-com-petition/98609-PDF-ENG>.

Glotko A.V.	Tadbirkorlik klasteri-ushbu tizimida ma'lum darajada o'zaro aloqa qilish madaniyatiga ega bo'lgan bog'liqlik bilan, ishtirokchilarning umumiy iqtisodiy manfaatlarini amalga oshiruvchi va texnologik zanjir tamoyili asosida tashkil etilgan hududiy jihatidan alohida innovasion yo'naltirilgan integrasion tuzilma
Toxchukov. R	Tadbirkorlik agroklasteri-pirovard natijasi sinergetik samara olish hisoblangan ishlab chiqarishning barcha bosqichlari-qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishdan tayyor mahsulotni sotishgacha bo'lgan jarayonlarni yagona takror ishlab chiqarish tarzida mujassamlashtirgan turli faoliyat bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarni birlashuvi
Mehrobi I. H.	Klaster-o'zaro bog'liq va bir-biriga uyg'unlikdagi komponentlardan iborat yaxlitlikning bir turi bo'lib, o'zaro ta'sir xarakteri tizimning iqtisodiy samaradorligini belgilaydi
Yusupov M.S	Klaster deganda biror turdagi mahsulotni ishlab chiqarishning texnologik zanjirida ma'lum ixtisoslashuv va mehnat taqsimotiga ega hamda yagona maqsad yo'lida uyushgan korxonalar tizimi tushuniladi. Agrosanoat majmuasiga nisbatan qo'llanilganda esa-agroklaster qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash, saqlash va sotish texnologik tizimida o'zaro uyushgan holda faoliyat olib boruvchi fermer va dehqon xo'jaliklari, qayta ishlash sanoat korxonalari, saqlash, logistika va sotish infratuzilmalarining yagona maqsad yo'lida birlashgan tuzilmasini anglatadi
M. Rahmatov	Innovasion klaster bu-bir majmua doirasida bir jamoa bo'lib yerlarni shudgorlash, chigit ekish, paxtani parvarishlash, hosilni yig'ib-terib olish, xom-ashyoni chuqur qayta ishlash bilan bog'liq korxonalarni birlashtiruvchi ishlab chiqarish uslubidir

Klasterlar-geografik yaqin joylashgan o'zaro bog'liqlikdagi korxonalar guruhi bo'lib, ular o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashishi natijasida raqobatbardoshlikning rivojlanishi, ko'proq qo'shimcha qiymat yaratishga va bozorda sotilishiga imkoniyatlar yaratishdir. Demak, boshqacha qilib aytganda klaster-ishlab chiqarish korxonalari raqobatbardoshligini ta'minlash asosida ularni barqaror iqtisodiy o'sishiga imkoniyatlar yaratuvchi, o'zaro chambarchas bog'langan tarmoqlarning yagona zanjirini tashkil etuvchi uyushmadir.

Klasterlar ishtirokchilari deganda - uning tizimida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik sub'yektlari tushuniladi va ularning faoliyati yagona maqsadga, o'zaro hamkorlikka va yuqori manfaatdorlikka qaratilgan bo'ladi. Muallifning fikricha klaster ishtirokchilarini quyidagicha e'tirof etish mumkin. Klaster tarkibiga kiruvchi tadbirkorlik korxonalari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar yangicha tus oladi. Shuningdek, klasterlar tadbirkorlik sub'yektlari uchun keng ko'lamli innovasion loyihalarni amalga oshirishda faol ishtirok etish, qo'shimcha daromad olish, yangi ichki va tashqi bozorlarga chiqish, innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish, xarajatlarni kamaytirish, xodimlar malakasini oshirish, mehnatga layoqatli aholini doimiy daromad bilan ta'minlash, tadbirkorlik korxonalarini innovasion faoliyatga jalb etish va pirovardida raqobatbardoshlikni oshirish omili hisoblanadi. Bularning

barchasi klasterlar tizimidagi tadbirkorlik korxonalarining o‘zaro hamkorligi doirasida amalga oshiriladi. Muallifning fikricha klaster ishtirokchilarini quyidagicha e’tirof etish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Klaster ishtirokchilarining tarkibiy tuzilishi⁷

Klasterlarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi uning ishtirokchilari yo‘nalishlari bo‘yicha taqsimlanadi:

-klaster ichidagi o‘zaro aloqalarni rivojlanishi, raqobatda yangi imkoniyatlarni paydo bo‘lishiga olib keladi;

-o‘zaro erkin axborot almashinuvi yuzaga keladi, yangiliklar iste’molchi va mahsulot yetkazib beruvchilarning kanallari bo‘yicha tez tarqaladi;

-inson kapitali, ilmiy g‘oyalar rivojlanib uni ishlab chiqarishga joriy etish uchun yangi imkoniyatlar yuzaga keladi;

-yuqoridagi omillar ta’siri ostida ilmiy-tadqiqot ishlari rag‘batlantirilib, yangi strategiyalar belgilanadi va rivojlanish jaryonini tezlashtiradi.

Mamlakatimizda iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida yaxlit agrosanoat majmuasi taraqqiyotini belgilab beruvchi hududiy paxta-to‘qimachilik klasterlari muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, paxta-to‘qimachilik klasterlari nafaqat qishloq xo‘jaligini, balki yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati, farmasevtika, qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish kabi o‘nlab tarmoqlarni ham o‘z ichiga qamrab oladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, mamlakat iqtisodiyotida paxta-to‘qimachilik tarmog‘ida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik korxonalari salmoqli mavqega ega bo‘lib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli darajada ta’sir etuvchi afzalliklarini yuzaga keltirmoqda.

⁷ Muallif ishlanmasi.

Bugungi to'plangan tajriba ko'rsatib turibdiki, klaster yuqori tashkilotlar tomonidan belgilab qo'yilgan rasmiy munosabatlar emas, balki tadbirkorlikning hamkorlikka asoslangan yangi kreativ fikrlashidir. Shu nuqtai nazardan olganda tadbirkorlik sub'yektlarini klasterga majburiy jalb etib bo'lmaydi. Hamkorlik asosida xo'jalik yurituvchi sub'yektlarni klasterga birlashtirish orqali ularning o'zaro munosabatlarini kengaytirish va rivojlantirish uchun imkoniyatlarni yaratilishidir. Shuningdek, ishlab chiqarish va texnologik aloqalarni kengaytirish, resurslardan birgalikda foydalanish, kapital mablag'larini maqsadli birlashtirish asosida xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Buning uchun mazkur tizimni yo'lga qo'yishdagi mavjud to'siqlarni bartaraf etish zaruriyatga aylanadi. Ana shunda ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash va iste'moldagi iqtisodiy birliklar o'rtasida o'zaro munosabatlar rivojlanadi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirish hamda uslubiy yondashuvlar asosida "paxta-to'qimachilik klasteri" tushunchasining iqtisodiy mazmuniga mualliflik ta'rifini beramiz. Paxta-to'qimachilik klasteri-iqtisodiy faoliyatning bir-biriga bog'liq sohalarida tadbirkorlikni muvaffaqiyatli amalga oshirishda texnologik jarayonlarni uzviyligi, uzluksizligini taminlash va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish imkonini beruvchi o'zaro manfaatdorlikka asoslangan takror ishlab chiqarish zanjiridir.

Shuningdek, klasterlar innovasion, raqobatbardosh va samarali iqtisodiyotni shakllantirishning zamonaviy iqtisodiy vositachisi, zanjirli tizimda yaratilgan tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib berishni, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanishini hamda unga mos keladigan ishlab chiqarish munosabatlarini qaror toptirish asosida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi milliy iqtisodiyotning dinamik rivojlanishini ta'minlovchi o'zaro bir-biri bilan zanjirsimon bog'langan xo'jalik sub'yektlarining yig'indisidir. Klasterlarda ta'lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyalashuvi bilan bir qatorda xususiy tadbirkorlik korxoanalarining o'zaro manfaatli kooperatsiyasini rivojlanishiga ham zamin yaratiladi.

Dissertatsiyaning **"Paxta-to'qimachilik klasteri asosida tashkil etilgan tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatining ishlab chiqarish samaradorligi tahlili"** deb nomlangan ikkinchi bobida mamlakatimizda, shuningdek, Namangan viloyatida paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, bugungi holati va klasterlar faoliyatini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar hamda bu jarayonni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari asoslangan.

Hozirgi vaqtda ichki va tashqi bozor talablariga javob beradigan sifatli tovar mahsulotlarni ko'paytirish paxta-to'qimachilik sanoatini klaster usulida rivojlantirish, texnik-iqtisodiy modernizatsiyalash, ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash hisobiga amalga oshirishni taqozo etadi. Shuning uchun mamlakatimizda paxta-to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 16-dekabrda "2017-2019-yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va 2017-yil 14-dekabrda PF-5285-sonli "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosi doirasida mamlakatimizni bir qator viloyatlarida paxta-to‘qimachilik klasterlari tashkil etildi. Bundan ko‘zlangan maqsad-keng turdagi sifatli to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish, mahalliyashtirishni yanada chuqurlashtirish, ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik sub’yektlarining eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan. Qaror talabiga binoan, paxta-to‘qimachilik klasterlarini o‘rta va uzoq muddatli istiqbolli rivojlantirish chora-tadbirlari ishlab chiqilishi kerak.

Mamlakatimizda paxta-to‘qimachilik yo‘nalishidagi klasterlar soni 134 tani, jumladan, Namangan viloyatida 7 tani tashkil etadi. Tadqiqotlardan aniqlanishicha 2022-yil yakunida to‘qimachilik sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan jami 1,0 mln. tonnadan ziyod paxta tolasi qayta ishlandi (2020-yilga nisbatan 18% ga ko‘p). Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 64 trln.so‘m (o‘sish sur‘ati – 145 foiz), shundan to‘qimachilik uyushmasiga a‘zo korxonalar tomonidan 33,0 trln. so‘mlik to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari iste‘molchilarga yetkazildi. Jumladan: 747,6 ming tonna kalava ipi (119%), 510,9 mln.kv.m. gazlama (135%), 176,0 ming tonna trikotaj mato (146%), 293,1 mln juft paypoq mahsulotlari (117%), 571,3 mln.dona trikotaj mahsulotlari (129%) va 604 mlrd.so‘mlik tikuv mahsulotlari (130%) bilan iste‘molchilarning talabi qondirildi. (2-jadval)

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va dinamikasi⁸

t.r	Mahsulot turlari	Yillar					2022-2018 yillardagi farq, +, -
		2018	2019	2020	2021	2022	
1.	Kalava ip (ming tonna)	403,7	448,9	515,8	592,7	747,6	343,9
2.	Tayyor mato (mln.kv.m)	302,6	348,9	380,7	415,4	510,9	208,3
3.	Trikotaj gazlama (ming tonna)	69,9	89,9	112,3	140,4	176,0	106,1
4.	Tikuv- trikotaj mahsulotlari (mln.dona)	452,3	536,0	622,4	722,8	571,3	119
5.	Paypoq mahsulotlari (mln. juft)	102,0	135,0	184,8	252,9	293,1	191,1

2018-2022-yillar davomida kalava-ip mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1,9, tayyor mato ishlab chiqarish 1,7, trikotaj gazlama ishlab chiqarish hajmi 2,5, tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1,3 va paypoq mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2,9 martaga ortib borishi kuzatiladi. Ushbu ma‘lumotlar orqali “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tarkibidagi korxonalar bo‘yicha asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘sish tendensiyasini kuzatish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018-yil 19-sentyabrdagi 744-sonli qarori, 2019-yil 18-martdagi

⁸ Jadval O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

“Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishlarini yanada rivojlantirish chora tadbirlar to‘g‘risida”gi 230-sonli qarorlariga asosan Namangan viloyatining 10 ta tumanidagi 63406 gektar yer maydonida paxta xom-ashyosini yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklari to‘laligicha klaster korxonalariga birlashtirib berildi. 2022-yilga kelib viloyatda 7 ta paxta-to‘qimachilik klaster korxonalarini faoliyat yuritib kelmoqda.

Bugungi kunda “Art soft Holding” korxonasi tarkibidagi Mingbuloq va Pop tumanlarida yetishtirilgan paxta xom-ashyosini qayta ishlovchi 3 ta paxta tozalash korxonasi (Gulbog‘, Gigant va Pop paxta tozalash zavodlari), 2 ta ip-yigiruv fabrikasi (Art Soft tex spinning MCHJ, PapFen xk MCHJ) 3 ta to‘quv-bo‘yoq (Art soft tex MCHJ, Namangan momiq sochiqlari MCHJ, Choshgoh MCHJ) va 7 ta (Art soft livestock XK MCHJ, Art soft engineering MCHJ, Art soft tower MCHJ, Art-soft-mall MCHJ, Art soft logistics MCHJ, Flat tile MCHJ, Tog' go‘zali MCHJ) sanoat va xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarini bozorni xaridorgir mahsulotlar bilan to‘yintirmoqda.

Klaster tizimi asosidagi “Art soft tex cluster” paxta-to‘qimachilik korxonasi tarkibidagi tadbirkorlik sub`yektlari faoliyatini tahlil qiladigan bo‘lsak, Namangan viloyatidagi 549 ta fermer xo‘jaliklari bilan tuzilgan f`yuchers shartnomalari asosida 23218 gektar yer maydonida sanoat xom-ashyosi bo‘lgan paxta yetishtiriladi .

2018-2022 yillarda “Art soft Holding” korxonasi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdori yildan-yilga ortib bormoqda (3-jadval).

Korxonaning asosiy ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari qiymatlarining o‘zgarib borishi monoton, ya’ni yillar kesimidagi o‘sish ko‘rsatkichlari o‘tgan davrlarga hamohang. Masalan, o‘rganilayotgan davr mobaynida (2018-2022-yillar) yetishtirilgan paxta xom-ashyosi 1,6 martaga oshib 87184 tonna bo‘lgan. E’tiborli tomoni xom-ashyoni kalava ip holatiga keltirishda ham o‘sish kuzatilib, 85 foizni tashkil etgan va kalava ip qiymati ham o‘sib borish tendensiyasiga ega.

3-jadval

“Art Soft Holding” korxonasi tarkibidagi tadbirkorlik sub`yektlarining asosiy ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari⁹

T.r	Ko‘rsatkichlar	Yillar					2022-2018 yillardagi farq (+,-)
		2018	2019	2020	2021	2022	
1.	Yetishtirilgan paxta, tonna	54722	66178	70317	78381	87184	32462
2.	Ishlab chiqarilgan paxta tolasi, tonna	18058,2	21838,7	23907,7	26649,5	29701,3	11643,1
3.	Ishlab chiqarilgan kalava ip miqdori, tonna	16252	19654	21704	22 762	25368	9116

“Art Soft Holding” korxonasida shuningdek, kalava ip ishlab chiqarish hajmi ortishi bilan birga ishlab chiqarish xarajatlarida ham yildan-yilga o‘zgarishlar yuz bermoqda. (4-jadval).

⁹ Jadval “Art Soft Holding” korxonasi statistik ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

**“Art Soft Holding” korxonasi kalava ip ishlab chiqarish
xarajatlari to‘g‘risida ma’lumot¹⁰**

T.r	Ko‘rsatkichlar	Yillar					
		2018	2019	2020	2021	2022	
1.	Moddiy xarajatlar	I	19044,4	13351,8	26120,9	63629	107004
		II	71	63,1	62,1	70,7	63,7
2.	Mehnatga haq to‘lash xarajatlari	I	1100,1	1079,4	1911,7	4709,9	9790,2
		II	4,1	5,1	4,5	5,2	5,8
3.	Ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar	I	165,2	129,7	229,6	565,2	1174,6
		II	0,6	0,6	0,6	0,6	0,7
4.	Asosiy vositalar amortizatsiyasi	I	1840,9	2013,4	4368	7783,5	15744,2
		II	6,9	9,5	10,4	8,7	9,4
5.	Boshqa xarajatlar	I	4673,8	4580,6	9416,3	13269,2	34199,1
		II	17,4	21,6	22,3	14,8	20,4
6.	Umumiy xarajatlar	I	26824,4	21154,9	42046,5	89956,8	167912
		II	100	100	100	100	100

Izoh: I-mutloq ko‘rsatkich (*mln. so‘m hisobida*), II-nisbiy ko‘rsatkich (*foiz hisobida*).

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki (5-jadval), tahlil qilinayotgan davrda klaster asosidagi “Art Soft Holding” korxonasi kalava-ip ishlab chiqarish hajmi va uning xarajatlarini mutanosib ravishda o‘zgarib borishi kuzatilmoqda. Moddiy xarajatlar 2018-yilda 19044,4 mln so‘mni yoki umumiy xarajatlarning 71 foizi bo‘lgani muhim, lekin 2022-yilga kelib mazkur summa 107004 mln so‘mni yoki umumiy xarajatlarning 63,7 foizini tashkil etgan. Bunga sanoat zanjiriga birlashgan korxonalarda ishlab chiqarish uzluksizligini ta’minlanishi yo‘li bilan erishilgan. Shuningdek, mehnatga haq to‘lash xarajatlari ham ko‘payib borgan. 2018-yilda jami mehnatga haq to‘lash xarajatlari 1100,1 mln so‘mni, umumiy xarajatlarning 4,1 foizi bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilda 9790,2 mln so‘mni, umumiy xarajatlarda 5,8 foizga ko‘paygan. O‘shish 1,7 foiz punktga teng. Korxonada asosiy vositalar amortizatsiyasi 2018-yilda jami 1840,9 mln so‘mni, umumiy xarajatlarning 6,9 foizi bo‘lgan, 2022-yilga kelib 15744,2 mln so‘mni, umumiy xarajatlarning 9,4 foizi yoki nisbiy o‘shish 2,5 foiz punktga yetgani muhim. Boshqa xarajatlarda ham ko‘payib borish tendansiyasi kuzatildi, ya’ni 2018-yilda jami boshqa xarajatlar 4673,8 mln so‘mni, umumiy xarajatlarning 17,4 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda 34199,1 mln so‘m bo‘lib, umumiy xarajatlardagi hisyasi 20,4 foiz bo‘lgani e’tiborga molik.

Tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2022-yildan boshlab ip kalavani qayta ishlaydigan klasterlarga kredit olishda paxta xom-ashyosi va tolasini garovga qo‘yish amaliyoti joriy etildi. Klasterni faollashtirishga yangicha zamonaviy yondashuvlarni taqozo etmoqda. Shu bois tadbirkorlik sub’yektlariga kredit berishda yangicha tartibga muvofiq, aylanmadagi tovarlar, eksport shartnomalari, akkreditivlar va kelgusi tushumlardan ham garov ta’minoti

¹⁰ Jadval “Art Soft Holding” korxonasi statistik ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi..

sifatida foydalanish tizimi yo'lga qo'yildi. Bu imkoniyatdan foydalangan tadbirkorlarga 1 milliard dollar kredit berildi¹¹.

Klaster qo'shimcha qiymat zanjirining navbatdagi bosqichi tayyor mahsulot ishlab chiqarish faoliyati hisoblanadi. "Art Soft Holding" paxta-to'qimachilik klasterini qo'shimcha qiymat yaratadigan ya'ni, tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonasini tahlil qilamiz. Ushbu yo'nalishdagi korxonada oqartirilgan, sidiq'ra rang berilgan, bo'rtma naqshli, jakkard-halqali, halqa-tukli shakllardagi sochiq mahsulotlari ishlab chiqariladi. "Art Soft Holding" korxonasida sochiq ishlab chiqarish miqdori ortishi bilan birga ishlab chiqarish xarajatlarida ham yildan-yilga o'zgarishlar yuz bermoqda. (5-jadval).

5-jadval

"Art Soft Holding" korxonasida mavjud ishlab chiqarish quvvatlari va xarajatlari to'g'risida ma'lumot¹²

T.r	Ko'rsatkichlar	Yillar				
		2018	2019	2020	2021	2022
1.	Mavjud quvvatlar, tonna	4500	5000	5300	6000	7000
2.	Sochiq ishlab chiqarish hajmi, tonna	4350	4550	4850	5450	6380
3.	Ishlovchilar soni, kishi	796	1152	1234	1326	1650
4.	Moddiy xarajatlar	160118,9	169976,9	199012	241391,3	324146,5
5.	Mehnatga haq to'lash xarajatlari	9246,3	13738,2	16085	26086,4	28245,2
6.	Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar	1353,1	1648,6	1930,2	3130,4	3389,6
7.	Asosiy vositalar amortizatsiyasi	15560,9	25590,8	29962,2	42987,5	44833,5
8.	Boshqa xarajatlar	39240,4	58454,8	68439,9	54009,9	47971,7
	Jumladan:					
	-Umumxo'jalik xarajatlar	31347,2	45492,4	53263,2	44266	19475,6
	-Yordamchi xo'jalik xarajatlari	7893,2	12930,1	15138,8	9920,2	28245,2
	Umumiy xarajatlar	225519,6	269377,0	315391,4	367414,4	448335,4

